

Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi


2025- yil yanvar-oktabr oylari uchun

- I. Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025- yilning 1 noyabr holatiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasida 2 708 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 825 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 30,5 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 296 tasi (10,9 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 240 tasi (8,9 %) kiyim ishlab chiqarishga, 244 tasi (9,0 %) mashina va uskunalaridan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga va 184 tasi (6,8 %) mebel ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1 noyabr holatiga ko'ra





II. Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari shahar va tumanlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025- yilning yanvar-oktabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi korxonalari tomonidan 22 535,6 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 102,7 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	22 535,6	102,7
Nukus sh.	6 047,4	96,9
Amudaryo tumani	1 945,5	117,5
Beruniy tumani	809,2	108,9
Bo'zatov tumani	61,6	108,5
Qorao'zak tumani	834,1	108,7
Kegeyli tumani	350,9	110,6
Qo'ng'iro't tumani	1 359,5	107,7
Qanliko'l tumani	463,7	105,9
Mo'ynoq tumani	542,3	117,5
Nukus tumani	373,6	109,7
Taxiatosh tumani	3 002,2	103,6
Taxtakopir tumani	313,9	107,3
To'rtko'l tumani	737,2	101,2
Xo'jayli tumani	589,3	108,5
Chimboy tumani	411,4	106,2
Shumanay tumani	521,4	113,9
Ellikqal'a tumani	649,9	108,2

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (17 449,5 ming so'm), Taxiatosh tumanida (38 685,8 ming so'm), Mo'ynoq tumanida (15 962,2 ming so'm), Qorao'zak tumanida (15 248,1 ming so'm) o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (11 056,1 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 101,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, Mo'ynoq tumanida (116,6 %), Amudaryo tumanida (115,7 %), Shumanay tumanida (113,2 %) qayd etilib respublika ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-oktabr oylarida*



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025- yilning yanvar-oktabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 19 102,9 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (84,8 %) ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 378,8 mlrd so'm (1,7 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 2 928,3 mlrd so'm (13,0 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda 125,6 mlrd so'm (0,5%) ni tashkil etdi.

*Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025- yilning yanvar-oktabr oylarida*





III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025- yilning yanvar-oktabr oylarida respublikada 57,5 ming tonna ip kalava (2024- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 89,6 % ga ko'paygan), 64,0 ming tonna bug'doy uni (13,5 % ga ko'paygan), 883,8 ming tonna portlandsement (8,5 % ga ko'paygan), 188,4 ming tonna dinatriy karbonati (2,3 % ga ko'paygan), 11,4 ming tonna paxta tolasi (66,5 % ga kamaygan), 2 705,9 ming litr aroq (1,4 % ga kamaygan), 5,4 ming tonna o'simlik yog'i (1,0 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023 yil yanvar-oktabr*	2024 yil yanvar-oktabr*	2025 yil yanvar-oktabr
Portlandsement, tonna	350 703	814 634	883 845
Paxta tolasi, tonna	26 577,9	34 093,3	11 408,9
Tozalangan o'simlik yog'i, tonna	6 683,7	5 490,8	5 435,8
Bug'doy uni, tonna	68 243,1	56 419,1	64 008,7
O'simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar, tonna	2 764	5 017	3 324
Aroq, ming l 100% li spirt	2 765,1	2 743,3	2 705,9
Ip kalava, tonna	15 790,3	30 322,0	57 484,5
Tabiiy gaz, mln kub.m	834,1	724,6	667,0
Gaz kondensati, ming t	54,0	42,8	36,4
Dinatriy karbonati, ming t	175,2	184,1	188,4

**2023-2024 yillarning yanvar-oktabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.*


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 29,0 % (2024- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 33,1 % (2024- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 91,4 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,04 % ni (2024- yilning yanvar-oktabr oylarida 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 32,3 % ni (39,8 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 10,6 % ni (9,1 %), quyi texnologiyali 57,0 % (51,0 %) ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025- yilning yanvar-oktabr oylarida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 89,0 % ni, issiqlik energiyasini ishlab chiqarish esa 75,6 % ni tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2023 yil yanvar-oktabr*	2024 yil yanvar-oktabr*	2025 yil yanvar-oktabr
Elektrenergiya, mln.kvt.s	4 171,1	4 208,8	3 746,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	30,1	30,8	23,3
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	90 919,2	114 767,3	123 332,2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlarda 19,3 % ga, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 10,8 % ga hamda suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlarda 14,8 % ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023 yil yanvar-oktabr*	2024 yil yanvar-oktabr*	2025 yil yanvar-oktabr
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	7 505,3	7 655,2	8 484,2
Shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	8 030,0	10 874,8	12 977,6
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	57 130,1	71 822,2	82 472,4

**2023-2024 yillarning yanvar-oktabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9 103,3 mlrd so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 40,4 % ni tashkil etdi. 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 35,4% ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o‘zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste‘moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog‘i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo‘yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni mahsulot turlari bo‘yicha shakllantirish O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O‘zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug‘ va konditsiyalangan havo, suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va qayta foydalanish bo‘yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo‘yicha statistika ma‘lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma‘lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma‘lumotlari; e) uy xo‘jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.



Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asosanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M. Kurbanova
61 222-75-87 (9510)

Manzil:
230103, Nukus,
A. Dosnazarov kóshesi, 97 a-úy
Pochta: info@qrstat.uz
Tel.: +998 (61) 222-22-45
